

CHEKSIZ OLAM

Qanday qilib dunyo bo'ylab sayohat qilish mumkin?

Anvar bu savolni akasiga berdi.

– Bu ancha murakkab bo'lsa kerak, a? – deya qo'shimcha qildi u.

– Sayohat har xil bo'ladi.

Vatanimizning barcha diqqatga sazovor joylarini mashina, avtobus yoki velosipedda yurib ko'rib chiqish mumkin.

– Uzoqdagi xorijiy mamlakatlarni qanday ko'rish mumkin?

– Dunyo kechish uchun ko'p imkoniyatlar mavjud. Masalan, Ikrom amaki – tadbirkor. U tez-tez ishi yuzasidan Germaniya, Angliya, Chexiya va Rossiya kabi davlatlarga sayohat qiladi. Sinfdoshing Javohir bu yil Qozog'iston, Gruziya va Singapurga bordi. Bilasanmi, qanday qilib?

– Chunki u matematika bo'yicha fan olimpiadalari g'olibi. U turli mamlakatlarga xalqaro olimpiadalarga boradi.

– To'g'ri, qo'shnimiz Lola endigina 10 yoshga kirgan bo'lsa ham, Fransiya, AQSh, Italiya va Kanadada bo'lgan. Chunki u musiqa bilan shug'ullanadi va turli mamlakatlarda o'tkaziladigan iqtidorli skripkachilar tanlovlarida qatnashadi.

– Musobaqa va tanlovlar – zo'r imkoniyat! – deya xitob qildi Anvar, – Kamol maktabimizda o'qiydi, u – sportchi. Bu yil Braziliya, Koreya va Gretsiyadagi musobaqalarga bordi.

Akasi unga Misr, Tailand, Indoneziya va Tunisga tinimsiz sayohat qiladigan



Sevara Yo'ldosheva Italiyada bo'lib o'tgan fortepiano bo'yicha xalqaro tanlovda bosh mukofotni qo'lga kiritdi.





Chempionlarimiz Sardor Muhammadiyev va Firdavs Ibrohimov Bolgariyadagi trampolin bo'yicha musobaqada.

Barno xolasini eslatdi. Chunki u sayyohlik kompaniyasida ishlaydi.

Shuningdek, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi, Turkiya, Hindiston, Xitoy va Polshaga tez-tez borib turadigan do'sti haqida gapirib berdi.

– Turli mamlakatlarga sayohat qilishga to'g'ri keladigan kasblar ko'p. Masalan, diplomatlar, tarjimonlar, gidlar va boshqalar. Ammo sen shuni tushunishing kerakki, bu yerda eng asosiysi muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishish kerakligidir. Muvaffaqiyatli insonlar, qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, o'zlari istagan mamlakatga sayohatga

borish imkoniyatlari bo'ladi.

Anvar o'ylanib qoldi.

– Demak, yaxshi o'qishim, universitetga kirishim va haqiqiy mutaxassis bo'lishim kerak. Shunda mening imkoniyatlarim kengayadi, sayohatga ham bora olaman.

– Barakalla. To'g'ri xulosa chiqarding, – deya akasi Anvarning qo'lini siqib qo'ydi.

Anvar hayotda muvaffaqiyat qozonish kerak, degan xulosaga keldi.

U o'z sohasining eng yaxshisiga aylanadi. Keyin u butun oilasini Angliyaga olib boradi. Yoki Avstraliyagami? U buni keyinroq hal qiladi. Hozircha uning oldidagi asosiy vazifa o'qish.

Chunki ilm olish muvaffaqiyat sari yo'lining boshlanishidir.

Ozodbek Axtamov Turkiyada o'tkazilgan matematika bo'yicha xalqaro olimpiadada bronza medal sohibi bo'ldi.



1. Turli mamlakatlarga sayohat qilish uchun qanday imkoniyatlarni bilasiz?
2. Hikoyada tilga olingan mamlakatlarni sanab bering.
3. Qaysi kasblar dunyo bo'ylab sayohat qilish bilan bog'liq?
4. "Muvaffaqiyatli inson" iborasini qanday tushunasiz?
5. O'z sohasining ustasi kim?
6. Agar sizga dunyoning istalgan 3 ta davlatiga sayohat qilish taklif qilinsa, qaysilarini tanlagan bo'lardingiz? Nima uchun?

Nargizaning besh qit'alik o'rtoqlari

Nargiza besh yoshidan ingliz tilini o'rgana boshlagan. Shundan beri "Ingliz tilida faqat gaplashishni emas, balki bexato yozishni qachon o'rganarkinman", deb yurar edi, chunki uning orzusi – dunyodagi beshta qit'aning har biridan do'st orttirish edi.

Bir kuni dadasi unga internetdagi bir saytni ko'rsatdi. Bu saytda dunyoning turli mamlakatlarida ingliz tilini o'rganayotgan bolalar bir-biri bilan gaplashib turar ekan. Nargiza ham o'sha saytga kirib, chatga o'zining O'zbekistondan ekanini, boshqa mamlakatdagi tengdoshlari bilan tanishmoqchi ekanini yozdi.

Unga dunyoning turli chekkalaridan javoblar keldi.

Oldiniga tanishib olish uchun hamma o'zi yashaydigan qit'adagi biror mashhur joy haqida gapirib beraylik deb kelishib olishdi.



Zambiyalik Edgar Zambezi daryosidagi **Viktoriya sharsharasi** haqida yozdi. Balandligi 40 qavatli uydek, eni 1 800 metr keladigan bu sharshara dunyodagi eng katta sharsharalardan biri ekan. Sharsharaning yonida, juda balandda uni tomosha qiladigan joy qilingan, temir yo'l o'tkazilgan.

Avstraliyalik Nikol esa dunyoning tabiiy mo'jizalaridan biri deb tan olingan **Katta To'siqli rif** haqida gapirib berdi. Katta To'siqli rif dunyoda tirik jonzotlardan – marjonlardan tashkil topgan eng katta majmuadir. Uning uzunligi 2 500 metrni tashkil qiladi. Rif ayniqsa samolyotdan yoki suv ostidan nihoyatda chiroyli ko'rinadi.

Rif suvlarida cho'milish uchun dunyoning barcha mamlakatlaridan sayyohlar kelib, misli ko'rilmagan rang-barang suvosti dunyosini tomosha qiladilar.



Amerikalik Alan Nyu-Yorkdagi eng mashhur bog' haqida gapirib berdi. Tashkil qilinganiga 160 yil bo'lgan bu bog'ni tomosha qilish uchun har yili 25 million kishi tashrif buyuradi.





Italiyalik Donata ham 18 qavatli uydek keladigan g'alati minora haqida gapirib berdi. Bu minora bir necha asrdan beri bir tomonga qiyshayib turadi, lekin yiqilmaydi. Bugungi kundagi olimlarning aytishicha, **Piza minorasi** qurilayotgan paytida qiyshayib qolganiga 800 yil bo'libdi. Ular har ehtimolga qarshi minorani mustahkamlab qo'yishgan. Og'ib turgan Piza minorasini ko'rishga butun dunyodan sayyohlar tinmay kelib turadi.



Perulik Paula esa **Machu-Pikchu** shahrining suratlarini yuboribdi. Bu shahar dengiz sathidan 2400 metr balandlikdagi tog' cho'qqisida joylashgan. Shuning uchun uni "bulutlar orasidagi shahar" deyishadi. Olimlar bu shahardagi binolarning qurilishini ko'rib, lol qolishadi. Ko'p asrlar o'tgan bo'lsa ham, bu inshootlar nihoyatda yaxshi saqlangan. Uzoq vaqtgacha bunday shahar borligini hech kim bilmagan. Hozirgi kunda esa u dunyoning mo'jizalaridan biri hisoblanadi.



Nargiza ham O'zbekistonda Ustyurt platosidagi **Chink qirg'oqlari** haqida yozib, hammani hayron qoldirdi. Chink – sayozlab ketgan Orol dengizining baland, xuddi kesib olingandek o'tkir uchli qirg'oqlaridir. Ustyurt bo'ylab salkam 120 kilometrغا cho'zilgan, bu qirg'oqlar xuddi ertaklardagi rangdor saroylarga o'xshaydi.

Beshta qit'ada yashaydigan bu bolalar o'z yurtidagi ajoyibotlar haqida gapirib berib, do'stlashib ketishdi. Nargiza "Yaxshiyam ingliz tilini o'z vaqtida o'rganib olgan ekanman, bo'lmasa shuncha qiziq narsalardan bexabar qolib ketar ekanman" deb, rosa xursand bo'ldi.



1. Yer yuzida nechta qit'a bor? Ularning nomini aytib bering.
2. Peru, AQSh, Italiya va Zambiya qaysi qit'alarda joylashgan?
3. Qaysi qit'a to'liq muz bilan qoplangan?
4. Ustyurt platosi qayerda joylashgan?
5. Internet, sayt, chat nima degani?